Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 7 (2026) Published July 15, 2026**

IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR ENHANCING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF THE EDUCATION MANAGEMENT SYSTEM IN IMPROVING EDUCATION QUALITY

Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna

Senior Lecturer (PhD), Department of Economics, Andijan State Technical Institute

Abstract

This study focuses on improving the organizational and economic mechanisms for enhancing the economic efficiency of the education management system to improve education quality. The research examines modern approaches to educational management, efficient resource utilization, evaluation of the economic efficiency of management decisions, and the organizational and economic factors that contribute to improving education quality. Particular attention is given to the digitalization of management processes, strategic planning, performance evaluation indicators, and the implementation of innovative management mechanisms. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to enhance the economic efficiency of the education management system and ensure the sustainable improvement of education quality.

Keywords

education quality, education management system, economic efficiency, organizational and economic mechanisms, educational management, strategic management, innovative management, digital transformation, efficient resource utilization, performance indicators, educational institution, management decisions, education system, human capital, sustainable development.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA BOSHQARUV TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 7 (2026) Published July 15, 2026**

СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi,(PhD)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ta'lim sifatini oshirishda boshqaruv tizimi iqtisodiy samaradorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda ta'lim muassasalarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi tashkiliy va iqtisodiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, strategik rejalashtirish, samaradorlikni baholash indikatorlari va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishning ta'lim sifati hamda iqtisodiy natijalarga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, iqtisodiy samaradorlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ta'lim menejmenti, strategik boshqaruv, innovatsion boshqaruv, raqamli transformatsiya, resurslardan samarali foydalanish, samaradorlik indikatorlari, ta'lim muassasasi, boshqaruv qarorlari, ta'lim tizimi, inson kapitali, barqaror rivojlanish.

Настоящее исследование посвящено совершенствованию организационно-экономических механизмов развития экономической эффективности системы управления в процессе повышения качества образования. В работе рассматриваются современные подходы к управлению образовательными учреждениями, вопросы эффективного использования ресурсов, оценки экономической эффективности управленческих решений, а также организационные и экономические факторы, способствующие повышению качества образования. Особое внимание уделено цифровизации управленческих процессов, стратегическому планированию, внедрению инновационных механизмов управления и системы оценки эффективности. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на

повышение экономической эффективности системы управления и обеспечение устойчивого повышения качества образования.

Ключевые слова: качество образования, система управления, экономическая эффективность, организационно-экономический механизм, образовательный менеджмент, стратегическое управление, инновационное управление, цифровая трансформация, эффективное использование ресурсов, показатели эффективности, образовательное учреждение, управленческие решения, система образования, человеческий капитал, устойчивое развитие.

Jahon miqyosida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati, ya’ni sifatli kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish»[1,2] dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Xorijiy davlatlarda aksariyat oliy ta’lim muassasalarning davlat tasarrufidan chiqarilishi va ularning avtonomiyasining kengayishi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, oliy ta’limning baynalminallashuvi va globallashuvi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [3].

Dunyoda ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish, ta’lim muassasalarida markazlashgan ta’lim sifati diagnostikasini tashkil qilish, ta’lim sifatini nazorat qilishda nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikni ta’minlash, o‘qitish sifati monitoringining elektron tizimini ishlab chiqishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholashning interaktiv dasturiy vositalarini yaratish, o‘qitish sifati monitoringining tashkiliy modelini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim sifatini nazorat qilishning komparativistik texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim sohasida moddiy texnik bazani yangilash bilan birga uning o‘qitilish tizmi ham jahon talablariga mos tarzda o‘zgartirilmoqda. Jumladan, ta’lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning zamonaviy bilim olishi uchun Xalq ta’limi vazirligi ilg‘or xorijiy tajriba asosida zamonaviy milliy ta’lim dasturini yaratish bo‘yicha ish olib bormoqda. Milliy ta’lim dasturi asosida zamonaviy dizayn va mazmunga ega darsliklar bosqichma-bosqich ishlab chiqilmoqda. Bu yo‘nalishda STEAM fanlarini o‘qitish bo‘yicha

prezident maktablari tajribasini yoyish rejalashtirilgan. Yangi darsliklar, baholash dasturlari, fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari 73 tayyorlanmoqda. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o‘qituvchisi ham o‘zining mutaxassisligini, chuqur o‘zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallagan, ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta’lim jarayonida qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo‘lishi lozim. Albatta, ta’limdagi barcha innovatsiyalar va modernizatsiyalar uning tizmini ham o‘zgartirishni, yangilashni taqazo etadi. Bu o‘zgarishlar ham, avvalo, zamonaviy, foydali, yaratilgan moddiy texnik bazalarga mos, barcha uchun ma’qul bo‘lishini, insoniyat rivojlanishini hamda uning hayotidagi ijobiy ta’sir natijalarini ko‘zda tutishi lozim [4].

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va boshqaruv erkinligini kengaytirish ta’lim sifati hamda iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qilayotganini ko‘rsatmoqda. Ta’lim tashkilotlarida ichki audit, strategik rejalashtirish va sifat menejmenti tizimlarini joriy etish boshqaruvning shaffofligini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish imkonini beradi. Elektron hujjat aylanishi, moliyaviy monitoring va ta’lim sifatini baholash platformalari xarajatlarni kamaytirish bilan birga boshqaruv samaradorligini ham oshiradi.

Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Rahbar va pedagoglarning malakasini muntazam oshirish, ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish ta’lim sifati oshishining muhim omillaridan biridir.

Shuningdek, ta’lim siyosatini baholash, maktab va davlat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirish uchun iqtisodiy hamda institutsional indikatorlar yaratilgan, maktab infratuzilmasini rivojlantirish orqali ta’lim muhiti sifati va samaradorligini oshirish

mexanizmlari asoslab berilgan (World Bank). Bu esa ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

Ta’lim sifatini oshirish boshqaruv tizimining samaradorligi bilan uzviy bog‘liq. Samarali boshqaruv ta’lim muassasasining moliyaviy, moddiy-texnik va inson resurslarini maqsadli boshqarish imkonini yaratadi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini joriy etish;
- ta’lim sifatini baholashning zamonaviy indikatorlarini qo‘llash;
- raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish;
- budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni diversifikatsiya qilish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb etish.

Sifatli mahsulotga cheklovsiz harajatlar hisobiga bajarilgan mukammal mahsulotlar taalluqli bo‘lib, kamyoblik va qimmatlilik ushbu tushunchaning ikkita farq qiluvchi qirralari hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan sifat maqom va ustunlikni aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Binobarin, sifatni nisbiy tushuncha sifatida ham qo‘llash mumkin. Ushbu holatda sifat mahsulot yoki xizmatning belgisi (o‘ziga xos xususiyati, atributi) hisoblanmaydi. Sifat to‘g‘risida mahsulot yoki xizmatning mavjud standartlar yoki unga qo‘yilgan talablarga javob berganida gapirish mumkin.

Shunga ko‘ra, sifat o‘z-o‘zidan yakuniy natija bo‘la olmaydi. U faqatgina uning yordamida yakuniy mahsulotning standartga mosligini aniqlash vositasidir. Sifatni nisbiy tushunishda sifatli mahsulot yoki xizmat qimmat yoki mushkul, chiroyli yoki mujmal bo‘lishi shart emas. Shuningdek, u o‘ziga xos, oddiy, siyqasi chiqqan va odatiy bo‘lmasligi mumkin.

Sifat nisbiy tushuncha sifatida ikkita qirraga ega:

- birinchi – bu standart yoki unga qo‘yilgan talabga mos kelishi;

- ikkinchi – iste’molchilar talabiga mos kelishi.

Quality management systems. Bu so‘z inglizcha so‘z birikmasi bo‘lib, “Sifat menejmenti tizimi” (SMT) ma’nosini anglatadi, yana ham aniqrog‘i “Sifatli boshqaruv

tizimi” (SBT) deb tarjima qilinsa, bu so‘zning mazmun mohiyatini ISO 9000 konsepsiyasiga hamohang tarzda o‘girilganini bildiradi. YA’ni “Sifatli boshqaruv tizimi” – ISO xalqaro standartining konsepsiyasiga mos tushadi.

Xulosa qilib aytganda, Ta’lim sifatini oshirishda boshqaruv tizimining iqtisodiy samaradorligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, boshqaruvning shaffofligi va natijadorligini oshirish, ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin. Mazkur yo‘nalishda strategik boshqaruv, raqamlashtirish, innovatsion moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yu.Abdullaev. “Xorijiy oliy ta’lim: tajriba va tarqqiyot yo‘nalishlari”1999 yil 7-bet.
2. 23. Sh.Kurbanov, E.Seytxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish. Toshkent. “Turon-Iqbol”, 2006. 590 bet.
3. Колесников А.А., Козин И.Ф., Кожевников С.А., Соболев В.С., Степанов С.А., Щербаков А.Ю. Всеобщий менеджмент качества. Учебноэ пособиэ/ Под общей ред. С.А. Степанова. — СПб.: Изд-во СПБГЕТУ»ЛЕТИ», 2001.
4. G.S.Ibragimova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. // Monografiya. – Andijon: 2026. – 133 b.
5. Ibragimova.G.S. Ta’lim sifatini boshqarishda jahon tajribasidan foydalanish mexanizmlari. // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. – T.: 2025. №3. - B. 310-313.